

PAPER

HOZIRGI O‘ZBEK POEZIYASI TILINING LEKSIK MANBALARI VA RIVOJI

Abduraxmonova Irodaxon Shuhratjon qizi^{1*}

¹ Qo‘qon davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

* irodaxonabdurahmonova9@gmail.com

Abstract

Ushbu maqola o‘zbek poeziyasi leksikasining tarixiy taraqqiyoti, uning asosiy leksik manbalari va poetik til xususiyatlarini yoritadi. O‘zbek poeziyasi leksikasi o‘zining shakllanish jarayonida turkiy, fors-tojik va arab tillaridan so‘zlar olib, fonetik va morfologik o‘zgarishlarga uchragan. An‘anaviy klassik o‘zbek poeziyasi tilidan farqli o‘laroq, hozirgi o‘zbek poeziyasi tili o‘zining boy turkiy so‘zlar bazasi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, fors-tojik va arab tillarining ta‘siri ham o‘zbek poetik leksikasida muhim rol o‘ynaydi.

Key words: Poetik leksika, obrazlilik, ekspressivlik, prozaik nutq, sinonimiya, klassik va zamonaviy poeziya tili.

Kirish

O‘zbek poeziyasi leksikasi o‘ziga xos tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega. O‘zbek poeziyasi o‘z taraqqiyotida turli tillardan o‘zlashgan so‘zlar hisobiga boyib boradi. Poeziya tilida uchraydigan ko‘pgina leksik vositalar turli davrlarda fonetik va morfologik jihatdan o‘zgarib, hozirgi adabiy tiliga asoslangan, fonetik va morfologik jihatdan adabiy til qonuniyatiga bo‘ysunadigan ko‘rinishga ega bo‘lgan.

Badiiy asar tilining badiiylilik, obrazlilik va ta‘sirchanlik ko‘lami janr xususiyatlariga ko‘ra, bir xil emas. Bu vositalar nisbatan poeziya tilida bo‘rtibroq turadi. Shu jihatdan poeziya tili o‘ziga xos til hisoblanib, uning xususiyatlarini o‘rganish masalasiga tobora qiziqilmoqda.

Poeziya tili, shu tilni o‘ziga xos ajratib qo‘yuvchi bir qator xususiyatlarga ega. Avvalo, bu xususiyatlar poeziyaning mohiyatidankelib chiqadi. Poeziya mohiyatan turli ifoda usullariga, badiiy tashbehlarga asoslanuvchi obrazli, ta‘sirchan ifoda vositasidir. Obrazlilik va ekspressivlik ko‘laminin poeziyada bo‘rtibroq turishi ham bevosita she‘riyatning tasviriy vositalarga asoslanishi, fikrni lo‘nda, ifodali va ixcham formada ifodalanishi samarasidir.

Ma‘lumki, poeziya tili ham barcha nutq turlari singari til uchun umumiy bo‘lgan lug‘at fondiga asoslanadi. Lekin poetik nutqning o‘ziga xos xususiyatlari – tantanaliligi, o‘lchovdorligi, ohangdorligi, romantizmga moyilligi, an‘anaviylikka asoslanishi ayrim leksik vositalarni shu nutq uchun differentsiatsiylanishiga olib kelgan. Bunday lug‘aviy birliklar o‘z navbatida poetik

so‘zlar qatlami vujudga kelishi uchun asos bo‘lgan. Leksik vositalarning poeziya tilida bunday differentsiatsiylanishi poeziya tili leksikasi va poetik leksika tushunchasining ma‘nosi keng. U poeziyada qo‘llaniladigan barcha so‘zlarni, so‘z formalarini, shu jumladan, poetik leksikani ham qamrab oladi. Poetik leksika tushunchasi nisbatan tor tushuncha, u boshqa nutq turlarida qo‘llanilmaydigan yoki kam miqdorda uchraydigan (arxaik, traditsion poetik so‘zlarni yoki badiiy nutqni mustasno qilganda, nutqning boshqa turlarida deyarli uchramaydigan) sof poetik so‘zlar, poetik so‘z formalari, poetik qisqartmalar, poetik neologizmlar, okkazionalizmlarni qamrab oladi. Poeziya tilini o‘ziga xos ajratib turuvchi bu leksik vositalar poetik uslub vujudga kelishi uchun ham zamin yaratadi. Binobarin, poetik leksika tub mohiyati bilan stilistik qatlam, nutq jarayonida ma‘lum uslubiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish uchunгина tabaqalangan. Shunday ekan, bunday lug‘aviy birliklarni poeziya tili uchun neytral deb bo‘lmaydi. Chunki poetik leksika avvalambor o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi. Uni poetik nutq tabaqalanishiga tilning o‘zi imkoniyat yaratib beradi. Shu ma‘noda sinonimiya va ekvivalentlik poetik so‘z hosil qiluvchi manbadir. Zero, tildagi sinonim va ekvivalent so‘zlar orasidan poetik nutq uchun mosi ajraladi va shu nutqqa moslanadi.

Chunki: a) bir tushunchani bildirgan so‘zlar ifoda darajalari bilan o‘zaro farqlanib, ulardan biri poetik nutq uchun xoslanadi. Masalan: tirik, barhayot sinonimlaridan barhayot so‘zi ifodador. Bu so‘zda “hayotning abadiyligi” tushunchasi mavjud. Shu boisdan bu so‘zni ko‘proq poetik asarlarda uchratish mumkin;

b) bir tushunchani ifodalagan soʻzlar emotsional-ekspressivligiga koʻra farqlanib, ularning ham poetik nutq uchun mosi ajralgan. Masalan, shamol, yel, sabo, shabboda sinonimlaridan sabo, shabboda soʻzlari emotsional boʻyoqdorligi bilan farqlanadi;

d) poetik leksika nutq talabi bilan tilda mavjud ekvivalent soʻzlarning poetik nutq normasiga mutanosib forma va variantlarini tanlab qoʻllash natijasida boyib boradi. Bunday forma tildagi oʻz ekvivalentidan fonetik yoki leksik jihatdan ham farqlanishi mumkin. Masalan, –aro – ora, ajoyib – ajab, bukun – bugun fonetik butkul – butunlay, yiroq – uzoq, leksik jihatdan farqlanuvchi ekvivalentlardir;

e) poetik nutqning maʼlum oʻlchovdorlikka asoslanishi natijasida poetik ixchamlikka erishish, sheʼriy nutq boʻlaklarining mutanosibligini taʼminlash maqsadida qoʻllanilgan okkazioanl soʻzlar, soʻz formalari va variantlari natijasida poetik leksika boyib boradi;

f) va nihoyat, poetik soʻzlarning tabaqalanishida oʻzbek klassik adabiyotida poeziya janrining yetakchi janr boʻlganligi asosiy rol oʻynagan. Binobarin, shu janrda qadimdan qoʻllanilib, maʼlum vazifa bajarib kelgan leksemalar shu nutqqa moslashgan.

Poetik soʻzlarga xos xususiyatlardan biri asosan poetik sinonimiga ega emasligidir. Masalan: kishi, bashar soʻzlaridan basher poetik soʻz. Bu soʻzlarning odam, inson, shaxs kabi umumnutqiy sinonimlari mavjud boʻlmaganidek, basher soʻzi bilan yonma-yon qoʻllaniladigan poetik sinonimi yoʻq. Yoki Vatan, diyor soʻzlaridan diyor poetik soʻz, oʻlka, el, mamlakat umumnutqiy sinonimlardir. Bunday xususiyatlarni angligʻ, siyna, samo, hur, surur, yiroq va boshqa koʻpgina poetik soʻzlarda ham koʻrish mumkin. Bu soʻzlarning oʻxshash, kabi; koʻkrak, bagʻir; osmon, koʻk, erkin, ozod; xursandlik, shodlik kabi umumnutqiy sinonimlari mavjud, lekin poetik sinonimlari yoʻq. Shu bilan bir qatorda, baʼzi bir poetik sinonimlar qatori mavjudligini ham kuzatish mumkin. Masalan: yorqin, charogʻon, nurafshon, porloq sinonimik qatoridagi hamma soʻzlar poetik boʻyoqdorligi bilan ajraladi. Poetik nutq bezatilgan ritmik va metrik nutq boʻlib, prozaik nutqdan quyidagicha farqlanadi:

1. Poetik nutq bir-biriga solishtirish mumkin boʻlgan maydalangan nutq boʻlaklaridan (misralardan) tashkil topadi. Prozaik nutq jipslashgan nutqdır.

2. Poetik nutq ichki oʻlchovga ega boʻladi. Prozaik nutq bunday oʻlchovga ega emas.

3. Poetik nutqda gap boʻlaklarining oʻrin almashuvi (inversiya) muhim rol oʻynaydi. Prozaik nutq Grammatik holat doirasida boʻladi.

4. Poetik nutq lirik nutq. Prozaik nutqdagi koʻpgina holler lirikaga xos boʻlmaydi.

5. Poetik nutqni prozaik nutqdan farqlovchi yana bir muhim belgisi obrazlilik, frazeologik xususiyatlari, sintaktik tuzilishi, ohang va qofiya sistemasidir.

Poeziya tiliga xos xususiyatlardan yana biri bu tilning anʼanaviylikka ega ekanligidir. Shu xususiyatlariga koʻra, poeziya tili proza tiliga nisbatan nafasatliroqdir. Poetik nutq poetik komponentlar – musiqiylik, ritm, intonatsiya, taʼsirchanlik, inversiya va boshqalar natijasida vujudga kelsa-da, poetik nutqni yuzaga chiqaruvchi komponentlardan poetik leksika alohida ajralib turadi.

Maʼlumki, poeziya tilning anʼanaviy va yangi leksik bazasiga asoslanadi. Anʼanaviy soʻzlar poeziya tilida qadimdan qoʻllanilib, boshqa uslublarga nisbatan koʻproq poeziyaga xoslanganligi, traditsion poetik maʼno ifodalashi, poetik nutqda biror stilistik funktsiya bajarishi bilan farqlanadi. Bunday soʻzlar:

a) boshqa nutq turiga nisbatan poetik nutqda koʻp qoʻllanilgan;

b) umumisteʼmoldagi sinonimlaridan soʻz maʼnosidagi belgi-darajaning ortiqchiligi bilan farqlangan;

d) umumisteʼmoldagi sinonimlariga nisbatan emotsional-ekspressiv boʻlib, poetik nutqning emotsional obrazlilikini kuchaytirgan;

e) poetik nutq uchun shaklan mos va jarangdor. Shunga koʻra, sheʼriy texnika mosligini taʼminlab, nutqiy jarangdorlikni kuchaytirgan.

Umuman, poetik leksika hozirgi poeziya tilida aktiv qoʻllanilib, uslubiy imkoniyatlarni vujudga keltiruvchi quyidagi leksik qatlamlardan tashkil topgan.

1. Anʼanaviy soʻzlar:

a) arxaik soʻzlar: anduh (gʻam); agʻyor (begona), bahr (dengiz), gardun (osmon), dudogʻ (lab), yonoq (yuz), kamand (sirtmoq), dahr // dayr (dunyo), boda (may), kishvar (mamlakat), mohroʻy (oy yuzli), mubham (noaniq), uzor (yuz), farax (xursandlik), faryod (nola chekmoq), shams (quyosh), gʻaddor (sotqin), gʻorat (talon-toroj qilish), hajr (ayriliq), qomar (oy) va boshqalar;

b) ramziy maʼno ifodalovchi traditsion poetik soʻzlar: sarv (qad-qomat), sunbul (soch), gʻuncha (lab), qalamqosh, gul (yor, yuz), mahvash, mohroʻy, mohitobon, mohtob (yor), andalib (oshiq), kabutar (yaxshilik) va boshqalar.

2. Sof poetik soʻzlar: alvido, asriy, aro, boqiy, beshak, butkul, vido, diyor, zakiy, zavor, zarrin, lol, nolon, nigoron, nisor, nido, nigoh, nogoh, otash, ogʻush, sabo, samo, suzgun, sarxush, siyna, tugʻyon, shavq, shodon, fido, gʻamza, ulugʻvor, xayolot, xotiro, tuygʻu, xushnud va boshqalar.

3. Poetik nutq jarayonida vujudga kelgan okkazioanl xarakterdagi soʻzlar bevosita biror ijodkorning soʻz qoʻllash novatorligi natijasida vujudga keladi. Bunday leksikalar boshqa ijodkorlar tomonidan ham qoʻllanilib, poetik leksikani boyitib boradi, badiiy nutqning boshqa turlarida qoʻllanilmasligi yoki passivligi bilan xarakterlanadi: bahoriy, zafarbaxsh, baxtnoma, daryodil, dardkash, sevinchbaxsh, sernoz, ishqiy, oʻlkadosh, jonbaxsh, jahannamiy, rutubatli, xotiro, kuzak, gʻururdosh, yelkadosh, gʻolibiyat, yovyurak, hiloliy, quyoshiston, qoʻldosh, qizillanar, qaygʻudosh, qadamdosh va boshqalar.

4. Soʻzlarning morfologik variantlari: aytajak, aylagil, borur, borajak, topgay, yozajak, olajak, olgay, kelmish, topmish, topgali, borgali, borarkan, yurarkan va boshqalar.

5. Soʻzlarning poetik formalari: gar (agar), lek (lekin), chun (uchun), ila (bilan), abad (abadiy), nechun (nima uchun), netmak (nima qilmoq), nedur (nimadir), bu kun (bugun), qay (qaysi), qayga (qayerga), albat (albatta) va boshqalar.

Bu leksik qatlamlarni kuzatish shuni koʻrsatadiki, ularni poeziya tili uchun neytral leksik birliklar deb boʻlmaydi. Ushbu leksemalarning badiiy nutqning boshqa turlariga nisbatan sheʼriy asarlarda aktiv qoʻllanilishi ham ularning poetik nutq uchun differensiyalashganini koʻrsatadi.

Poetik soʻzlarni leksik qatlam sifatida ajratish va uni maxsus oʻrganish masalasining muhim va aktualigi shundaki:

a) poeziyada ishlatiladigan leksik vositalardan bir qatori boshqa janrlarda kam ishlatiladi;

b) poetik soʻzlar badiiy taʼsirchanlikni, tantanali, obrazlilikni oshirish xususiyatiga ega boʻlib, boshqa nutqda baʼzan bu xususiyatlar sezilmaydi;

c) poetik soʻzlar emotsional-obrazlilikka, poetik koʻtarinkilikka ega boʻlib, boshqa janrlarda qoʻllanilganda soʻzning emotsional-obrazlilik susayishi yoki poetik nutqdagidek chiqmasligi mumkin;

d) poetik soʻzlar oʻziga xos leksik-semantik, stilistik xususiyatlarga ega boʻlib, ularning bu qirralari koʻproq sheʼriy nutqdagina ochiladi.

Shunga koʻra, poetik leksikaning tabiati, semantic-stilistik xususiyatlari, adabiy til sistemasida tutgan oʻrni, boshqa til elementlari bilan boʻlgan munosabati masalasi umumlingvistik masaladir.

Oʻzbek tili poetik leksikasini tashkil qiluvchi quyidagi soʻzlarni poetik matnlarda aktiv uchrashini kuzatish mumkin. Gʻ.Gʻulom asarlarida aktiv uchraydigan poetik soʻzlar: adab, albat, billurin, yugurik, ishqparvarlar, intiqom, yovyurak, dogʻuli, argʻumoq, munavvar, roʻbaroʻ, suzgun, otashin, otashpora,

jondosh, arg'umog, xayolot, bo'sa, sarin, munis, basher, bukun, noma, nasim, mahzun, parishon, ulug'vor, ustod, mohro'y, aro, zavol, shafaq, gulgun, tamug', zulmat, yov, g'oyat, boqiy, daryodil, nechun, eldosh, on, sarzamin, o'lka, lolagun, yalov, bolqar, ayyom, do'stparvar, chaman, ichra, yoddosh, sarbasar, oshyon, suzuk, surur, shams, samo, yondosh, niliy, lojuvard, kabutar, asriy, nido, so'nik, mahbub, ajib, bog'iston, insoniy, erur, inmoq, chamanzor, ne, iqbol, qadamdosh, jahoniy, uzra, lol, sado, ummon, nahr, mehnatobod, zamin, yonog', charog'bon, qay, azmkor, charog', shul, sarfaroq, siyna, boqmoq, g'olibona, ila, qad, inju, dudog', maskan, g'ussa, bashariyat, mangu, nechog'lik, ne ajab, shabada, abadiya, zarrin, sarbon va boshqalar.

Oybek poeziyasida quyidagi poetik so'zlar aktiv uchraganini kuzatish mumkin: nechun, faryod, chechak, sunbul, malak, nadur, hajr, so'yla, boq, hayhot, naqadar, dudoq, mangu, abad, bukun, ol, ila, samo, suzgun, farah, qayga, yanglig', yog'du, bo'sa, jahoniy, shabboda, sokin, sado, tuyg'u, yanoq, fusun, maskan, suzgun, nogahon, otashin, tarannum, zarrin, daho, charog'on, hur, diyor, g'addor, firoq, ummon, lol, yugurik, ala, nogoh, albat, gulgun va boshqalar.

Uyg'un asarlarida uchraydigan poetik so'zlar: chechak, dudoq, nechun, suzgun, sabo, yanglig', bo'sa, shabada, mangu bukun, nido, samo, abad, safbasta, kabutar, sarxush, yonog', tuyg'u, g'olibiyat, naqadar, basher, baxtnoma, barhayot, hur, tarannum, boq, fido, diyor, nahr, sarbasar, xilqat, sarsari, siyna, jilva, neki, diyor, ul, nahr, sevincbaxsh, hilol, gar, bitilgan, sitamgar, visol, albat, zafarbaxsh, gulgun, boda, shabboda, maskan, ayla, sunbul, rangin, bokira, sarmast, jilvagar, yalov, otashin, bahoriy, mohitobon, on, nido, safobaxsh, bitmoq, ila, ol, toabad, surur, faryod, firoq, guluzor, ichra, otash, erur, nigoron, mohtob, asriy, nargiz va boshqalar.

H.Olimjon ijodida quyidagi poetik so'zlar aktiv qo'llanilgan: yanglig', zotan, uzra, suzgun, ila, bashar, chechak, dudog', shuur, so'yla, abad, mangu, vafo, qadar, misli, boq, ol, maftun, o'lka, bo'y (hid), nechun, tanho, intizor, bahoriy, faryod, nahot, otashin, netmak, lol, ishqiy, tug'yon, bokira, jafo, shabboda, erur, sokin, alvido, ayladim, intizor, xayolkash, g'orat, jilvagar, jangnoma, malak, jilva, qayg'udosh, ag'yor, ichra, bamisli, ajib, manim, sarhad, ul, kabutar, albat, samo, nedur, xotirot, tarannum, sernoz, otash, fig'on, on, tole, bukun, diyor, misli va boshqalar.

E.Vohidov asarlarida uchraydigan poetik so'zlar: ichra, ulug'vor, uzra, nigoh, moviy, hilol, falak, boqdim, o'lka, ne ajab, nogoh, zamin, basher, qay, siyna, yuksak, boqib, munis, ila, yiroqlab, tanho, bitib, fido, tuyg'u, xayolot, ozor, judolik, nahr, diyor, pinhona, tug'yon, shaydo, qoshimda, ummon, shavq, otash, ajib, aylab, quyoshiston, yanglig', hiloliy, maskan, navo, fido, rangin, chaman, surur, bamisli, boq, naqadar, samo, sado, balqib, lol, sokin, samovot, xushnud, sarfaroq, nido, aro, otashin, nigoron, xurshid, sabo, zavol, moviy, ne, shodon, bashariyat, nahor, jonbaxsh, lojuvard, karashma, firoq, pari, sanam, visol, sukunat, munis, og'ush, barkamol, nigor, iqbol, nahot, nahotki, osuda, xilqat, lolagun, farah, qamar, abadiyat, lek, jahoniy, qayon, nechun, ne, neki, nechog'lik, cho'mgan, koshona, mohitobon, ishvanoz, dilband, daho, nurafshon, diltang, kanora, hazing, ufurmoq, sarafroz, sabot, ichra, jonfido, g'amguzor va boshqalar.

A.Oripov asarlarida uchraydigan poetik so'zlar: lol, qay, nahot, erur, bitdim, aro, o'lka, surur, samo, boqiy, maskan, alvido, rangin, xilqat, tuyg'u, dilkash, pokdomon, nechun, ulug'vor, ul, ummon, falak, siyna, ruxsor, koshona, purviqor, g'anim, hilol, mahvash, betimsol, abad, sargashta, nihon, zarrin, uzra, jahoniy, otash, og'ush, g'addor, g'orat, bamisli, kuzak, bolqarsan, qo'ldoshimsan, dardkash, jahannamiy, moviylashar, g'ururdosh, yelkadosh, azaliy, shukrona, samoviy, rutubatli, xotirot, beshak, nolon, hayhot, visol, bahr, qamar, olov, nogahon, neni, nido, butkul, nasim, daho, yanglig', zotan, zavol, navqiron, nadir, nelar, firoq, vafo, yugurik, nogoh, sarbaland, ajib, farah, bokira, sarxush, bezavol, nechuk, gulgun, zabun, mohitob, nisor, abas, garchand, yeldirim, yelvagay, ushbu, manim va boshqalar.

Shunday qilib, poeziya tilining leksik jihatdan alohidaligini uyushtiruvchi yuqoridagi leksik va morfologik vositalarni nutqning shu turi uchun differentsiatsiyalangan yaqqol ko'rinadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, poeziya tili an'anaviylikka moyil til. Shuning uchun ham she'riyatda uchraydigan ko'pgina so'zlar adabiy til uchun eskirgan hisoblanib, aksariyat o'rinlarda poetik obrazlilikni ta'minlaydi, uslubiy vazifa bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek tilshunosligi va leksikologiya asoslari, Toshkent, 2010
2. Poeziya va proza tilining lingvistik tahlili, M.Mirzayev, 2015
3. O'zbek klassik adabiyoti tarixi, A.Navoiy asarlari, 1998
4. Til va adabiyot nazariyasi, S.Qodirov, 2012
5. O'zbek poeziyasi leksikasi va uning xususiyatlari, D.Turdiyev, 2020
6. Arab, fors-tojik tillarining O'zbek tiliga ta'siri, O.Karimov, 2014
7. Poetik uslub va poetik nutq tahlili, N.Xusanov, 2018